

## JAMIYATNING MA'NAVIY ASOSLARI

*Buxoro shahar kasb-hunar maktabi*

*Huquq fani o'qituvchisi*

**Alimova Dilfuza Obidovna**

**Annotatsiya:** *Maqolada Jamiyatning ma'naviy asoslari, Inson va jamiyatning diniy qadriyatlari, Bizning hayotiy qadriyatlarimiz qanday? degan tushunchalar haqida fikr yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** *jamiyat, ma'naviyat, din, qadriyatlar hamda diniy qadriyatlar*

Jamiyatimizning ma'naviy asoslari asrlar davomida ajdodlar o'giti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligida shakllangan va rivojlangan. U insonning qon-qoniga ona suti, oiladagi tarbiya orqali singib boradi. Ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan milliy madaniyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf odat va ananalarimizsiz hayotimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Xo'sh, fikrimizni jamiyat so'zini tasniflash orqali tushuntiradigan bo'lsak, jamiyat lotincha so'z bo'lib, socium — „umumiy“) — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa tushunchalarga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Odamlar o'zining moddiy ishlab chiqarish faoliyatida irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadi. Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan ulushiga bog'liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlarga ajralishining negizidir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o'zaro bog'likligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir. Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg'unlashtiradi. Siyosiy soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat

tashkilotlarning o'z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyati jamiyatdagi o'rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi. Ma'naviy sohada kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadi va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi. Bu sohaga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me'yor va umuman olganda, jamiyat hayotining ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi tushunchalar kiradi. Bu esa ma'anaviyat tushunchasi bilan bir uyg'unlik kasb etadi. Ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat arabcha so'z bo'lib, „ma'no“ degan tyushunchani anglatadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kabi tushunchalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi. Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Jamiyat va ma'naviyat tushunchalarining rivojlanish bosqichlarida qadriyatlar ham quloch yoyadi. Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. qadriyatlarni mazmuni va harakteriga ko'ra progressiv va reaksion tiplariga ajratish mumkin.

Qadriyatlar muayyan jamiyatga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasavvurlaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlari uchun maqsad va ideal bo'lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat

hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlash joiz emas. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash uning turmushini yaxshilash, bilim va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'ligini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin xis etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir. Qadriyatlar keng qamrovli tushunchalardan tarkib topadi. Jamiyatda ma'naviy qadriyatlarining shakllanishida diniy qadriyatlarining ham o'rnini mavjud bo'lib, u insoniyat tarixida dunyoning har bir mintaqasida yashovchi xalqlarning ma'lum bir din va e'tiqodlar tizimisiz o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotini tasavvur qila olmaganligi ma'lum. Tarixiy davrlarning barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy bo'g'inlari o'z faoliyatlarini yuritish uchun u yoki bu diniy e'tiqod tamoyillariga tayanganlar. Mazkur holat barcha millat va elatlarga xos bo'lib, din avvalambor mazlum, ko'ngli shikasta va ijtimoiy ko'makka muhtoj kishilarni hiyo qilgani tufayli jamiyatning kiborlar tabaqasi uni darhol qabul qilmagan. Endi din tushunchasini tasniflaymiz. Din arabcha so'z bo'lib, دين — „e'tiqod“, „ishonch“, „itogat“ degan tushunchalarni bildiradi. Dinlarning kelib chiqishi turli madaniyatlarda turlicha kechgan. Ayrim dinlar ijtimoiy tartibni belgilab kelgan bo'lsa, boshqalari insonning ichki kechinmalari va ruhiyatini tartibga solishni ko'zlaydi. Din so'zini ba'zi hollarda „e'tiqod“ ma'nosida ham qo'llashadi, lekin bu doim o'rinli emas, zero e'tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas. Din — xudo yoki xudolar, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, din — Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. „Garchi kishilar turli dinlarga e'tiqod qilib, turli mamalkatlarda yashasalar, turli qabila va millatlarga munosib bo'lsalar-da, ular baribir inson avlodlaridirlar... Ularning barchasi bir-birlarini sevishlari, qadr-qimmatlarini hurmat qilishar va umumiy saodat asrini yaratishlari lozim“. Diniy bag'rikenglik va boshqa dinlar bilan murosa qilish mavzusini rivojlantirgan A. Avloniy o'zining „Turkiy Guliston yohud ahloq“ asarida musulmon diniy ta'limoti islomga e'tiqod qilmaydigan kishilarga nohaq jabr yetkazish, xususan, ularning qadr-qimmatini, mol-mulki yoki hayotiga qasd qilishini taqiqlashini qayd etib o'tadi. Din jamiyatda ezgulikka intilishga, o'zini ruhan va jismonan poklash, atrofdagilarga mafaat yetkazish, hayotini qadrlash kabi ijobiy xislatlarini targ'ib qiladi. Din insonlarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlab kelgan. Dunyodagi har bir xalq muayyan dinga e'tiqod qiladi, shu asosda shakllangan o'z urf-odat va ananalari bor. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonning asosiy vazifasi o'zini o'rab turgan olam sirlarini o'rganishdan iborat. Fanlarning holati ham ana shunday. Ularni kishining turmushidagi bo'lgan ehtiyoji dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan

tarmoq yoydi. Bizning hayotimizda nomlanishi mumkin bo'lgan dininy qadriyatlarning uzoq ro'yxati mavjud. Biroq har qanday e'tiqod va e'tiqodda asosiy deb hisoblanadigan qadriyatlar quyida keltirilgan barcha dinga e'tiqod qiluvchilarda mavjud. Bularga sevgi, xayriya, mehr, itoatkorlik, rahmdillik, yaxshilik, kabi tushunchalarni kiritamiz. Sevgi-bu harakatlar va birovga nisbatan fidoyi hissiyotlar orqali o'tadigan qadriyat. Bu muhim hissiy aloqalar va aloqalarni yaratadigan qiymatdir. Boshqalar qatori oilani, do'stlarni, hayvonlarni sevish. Bu shuningdek, o'z-o'zini sevishga g'amxo'rlik qilishni va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Xayriya- juda muhim fazilat bo'lib, u Xudoni hamma narsada sevishni anglatadi. Bu tinchlik, rahm-shafqat, sevgi va saxovatni yaratadigan qadriyatdir. Xayriyatli odamlar, kimdir qiyinchilik yoki muammoni yengish uchun yordamga muhtoj bo'lganda yordam berishadi. Mehr- rahm-shafqat odamlarning azob –uqubatlar yoki azob-uqubatlarga qarshi boshqalarning holatiga hamdard bo'lishga tayyorligini anglatadi. Rahmdil insonlar yarashish va kechirishga yordam beradigan va taklif qiladiganlardir. Itoatkorlik- har bir inson, umuman olganda, biror narsaga buyruq beradigan yoki boshqaradigan boshqa odamlarning irodasini hurmat qilish va ma'suliyat bilan hurmat qilish qobiliyatiga va munosabatiga ishora qiladi. Masalan, oilaviy masala bo'yicha qaror qabul qilishda ota-onalarga itoat etish. Rahmdillik. Mehr –shafqat-bu odamlar boshdan kechirayotgan narsalar bilan bog'lanish qobiliyatidir. Boshqalarning ehtiyojlari bilan harakat qilish va ularga yordam berish uchun bu turtki. Yaxshilik- bu yaxshilik qilish orqali javob berish va harakat qilish munosabatidir. Mehribonlik evaziga hech narsa kutmasdan. Yaxshilik- bu yaxshilik qilish orqali javob berish va harakat qilish munosabatidir. Mehribon odamlar og'riq qayg'u yoki og'riqni yo'qotish uchun yaxshi harakatlar orqali boshqalarga farovonlikka erishishga intilishadi. Mehribonlik evaziga hech narsa kutmasdan boshqalarga yordam beradi.

Xulosa o'rnida Hadisi sharifda keltirilgan jumlar bilan fikrimizni yakunlaymiz. “ sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishlarini deb oxiratni, oxiratni deb dunyo ishini tark qilmaydigan va odamlarga og'irligini tushirmaydiganlaringizdir “.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat nashriyoti T. 2000 y.
2. Ma'naviyat : asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T. G'. G'ulom nashriyoti 2010y.
3. Raxmonova G va boshqalar Ahloq shaxs taraqqiyotining yuqori ma'naviy poydevori. Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnal 2022y
4. Yusupov E., Mamashokirov S. Falsafa Darslik. - Toshkent: 2005y
5. I. Karimov, M. Rustamova. Falsafa fani tarixi va nazariyasi. Metodik qo'llanma. --T.: TDPU nashriyoti. 2007.
6. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. (darslik). - Toshkent: 2016y
7. Po'latova D. Falsafa. (o'quv qo'llanma)—T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. 2011y.
8. Tarbiya fani 10- sinflar uchun darslik. T. 2021 y.